ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR ( RESEARCH BIB ) – 7,245, SJIF – 5,431

**SAYFIYEV JASUR RAVSHANOVICH**
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistranti
Tel: +998997912929
Email: j.sayfiev.r@gmail.com

# BUGUNGI KUNDA MENEJMENTNING JAHONDA TUTGAN O'RNI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada menejment haqida tushunchalar,'menejmentning maqsad va vazifalari" "O'zbekistonda menejmentni rivojlantirish yo'llari", shu yo'nalishdagi muammolar keltirilgan. Menejment bilan maxsus tayyorgarlik ko'rgan, boshqarishning qonun-qoidalarini chuqur biladigan malakali mutaxassislar – yollanma boshqaruvchilar – menejerlar shug'ullanadilar. Ular aholining alohida ijtimoiy qatlamini tashkil qiladi. Ya'ni menejmentning vazifalari moddiy va nomoddiy ne'matlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarni tashkillashtirish va boshqarishning barcha savollarini qamrab olishlari lozim.

**Kalit so`zlar:** Menejment, iqtisodiyot, jahon iqtisodiyoti, tashkilotlar, faoliyat, global raqobat**,** o'zgaruvchan bozor talablari, o'quv va rivojlanish**,** kooperatsiya.

**Аннотация:** в данной статье представлены понятия об менеджменте, «цели и задачи менеджмента», «пути развития менеджмента в Узбекистане», проблемы в этом направлении. Управлением занимаются квалифицированные специалисты - наемные менеджеры - управленцы, прошедшие специальную подготовку и глубоко знающие правила управления. Они образуют отдельный социальный слой населения. То есть задачи управления должны охватывать все вопросы организации и управления предприятиями, производящими материальные и нематериальные блага.

**Ключевые слова:** Менеджмент, экономика, мировое хозяйство, организации, деятельность, глобальная конкуренция, меняющиеся требования рынка, обучение и развитие, сотрудничество.

**Abstract:** this article presents concepts about management, "goals and tasks of management", "ways to develop management in Uzbekistan", problems in this direction. Qualified specialists - hired managers - managers, who have received special training and know the rules of management in depth, are engaged in management. They form a separate social stratum of the population. That is, the tasks of management should cover all questions of organization and management of enterprises producing tangible and intangible goods.

**Key words:** Management, economy, world economy, organizations, activity, global competition, changing market requirements, training and development, cooperation.

Bugungi kunda menejment jahon iqtisodiyotida va tashkilotlar faoliyatida muhim o'rin tutadi. Menejmentning asosiy vazifasi – tashkilotlarni samarali boshqarish, resurslarni optimal taqsimlash va maqsadlarni amalga oshirishdir. Menejment bugungi kunda nafaqat biznes sohasida, balki ta'lim, sog'liqni saqlash, davlat boshqaruvi kabi sohalarda ham muhim ahamiyatga ega. Yaxshi menejment strategiyalari tashkilotlarni yanada samarali va muvaffaqiyatli qiladi. Boshqaruv – tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat etish jarayonidir. Uning asosiy maqsadi bozor munosabatlari sharoitida barcha bo'g'inlarda ishlay oladigan yuqori malakali boshqaruvchilarni tayyorlashdan iborat. Menejment ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-huquqiy, kibernetika va boshqa fanlar bilan aloqadordir. Menejment dastavval iqtisodiy nazariya fani bilan yaqindan bog'liq. U iqtisodiy qonunlarni bilib olishga va ularga mos ravishda

boshqarish jarayonida iqtisodiy usullarni qo‘llashga, har bir xodimga va jamoaga ta’sir ko‘rsatishga asoslanadi. Bir qancha iqtisodiy fanlar: makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyot, statistika, mehnat iqtisodiyoti kabilar ham Menejment fani bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekistonda menejmentning nazariy asoslari va uning asosiy tamoyillari XIV asrlarda Amir Temur davrida shakllana boshlagan. Buyuk sarkarda “Temur tuzuklari” asarida davlat, qo‘shin va boshqalarni boshqarish san’ati to‘g‘risida o‘z qarashlarini bayon etib, izohlab bergan. Menejment fanining nazariy asosini bir necha yuz yillar davomida to‘plangan amaliy tajriba natijalari tashkil etadi, ularni nazariy jihatdan asoslab turli xil konsepsiyalar, nazariy g‘oyalar, ish prinsiplari va uslublari ishlab chiqilgan. Ammo alohida fan sohasi sifatida menejment XIX asrga kelib shakllana boshladi. Boshqarish fanining asoschisi – amerikalik muhandis va tadqiqotchi F. Teylor hisoblanadi. Boshqarish tamoyillarini Teylorning zamondoshi fransuz olimi Anri Fayol ishlab chiqdi. 1985-yildan boshlab menejment rivojlanishida yangi davr boshlandi. Tub islohatlar boshqaruvni jamiyatni demokratlashtirish, oshkoralik va pastdan yuqoriga xalq hokimiyatini o‘rnatish asosida takomillashtirishning asosiy yo‘llarini ifodalab berdi. Jamiyatda demokratik jarayonlar chuqurlashuvi va rivojlanishi bozor munosabatlariga o‘tishga asos bo‘ldi. Jamiyatdagi tub o‘zgarishlar siyosat, iqtisodiyot, menejment uslublari va texnologiyasiga jiddiy o‘zgarishlar kititishni belgilab qo‘ydi. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini boshqarishni isloh qilish hozirgi davrgacha mavjud bo‘lgan tajriba, jamiyat hayotining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy sohalarini oshqarishning bozor nazariyasiga, qabul qilingan qonun va huquqiy hujjatlarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Menejment sohasida jahon tajribasi, rivojlangan mamlakatlar va o‘zimizda to‘plangan tajribadan foydalaniladi. Bozor infrastrukturasini rivojlantirish ko‘p yillarga mo‘ljallangan strategik vazifadir.

Menejmentning jahon miqyosidagi o‘rni haqida davom etadigan bo‘lsak, quyidagi aspektlarni ko‘rib chiqish mumkin:

| | |
|---|---|
| **Global Raqobat**: | Hozirgi kunda global raqobat kuchaymoqda. Tashkilotlar o‘z raqobatdoshlarini o‘rganib, ularning muvaffaqiyatlarini hisobga olgan holda o‘z menejment strategiyalarini yangilab boradilar. Bu jarayonda menejment jamoasi samarali qarorlar qabul qilishda muhim ro`l o‘ynaydi. |
| **Texnologik Rivojlanish**: | Digitalizatsiya va yangi texnologiyalar menejmentni o‘zgartirmoqda. Masalan, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili tashkilotlarning operatsion jarayonlarini optimallashtirishga yordam beradi. Menejment bunday texnologiyalarni joriy etishda va ulardan foydalanishda yetakchi bo‘lishi zarur. |
| **Ijtimoiy Mas'uliyat**: | Menejment tashkilotlarni ijtimoiy mas'uliyatni o‘z zimmasiga olishga va barqaror rivojlanishga yo‘naltirishda ham muhim ahamiyatga ega. Tashkilotlar jamiyatga foydali bo‘lishi va ekologik masalalarni hisobga olishi kerak. |
| **O‘zgaruvchan Bozor Talablari**: | Bugungi kunda bozor talablari tez-tez o‘zgarib turadi. Menejment, bu o‘zgarishlarga moslashib, yangi imkoniyatlarni qidirishga, mijozlarning ehtiyojlarini aniqlashga yordam beradi. |
| **Jamoa Boshqaruvi**: | Menejment jamoalarning ish faoliyatini samarali boshqarish va muvofiqlashtirishda muhimdir. Jamoa ishini boshqarish qobiliyati, rahbarlarning liderlik xususiyatlari bilan birgalikda tashkilotning muvaffaqiyatiga ta'sir qiladi. |
| **Kreativlik va Innovatsiyalarni Rag'batlantirish**: | Menejment jarayonida kreativlikni rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega. Yangi g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash va innovatsion loyihalarni amalga oshirish, tashkilotning raqobatdoshligini oshiradi. |

| | |
|---|---|
| **O'quv va Rivojlanish**: | Menejment sohasida doimiy o'qish va rivojlanish muhimdir. Bu nafaqat rahbarlar, balki barcha xodimlar uchun ham amal qiladi. Ular yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirib, tashkilotning umumiy rivojlanishiga hissa qo'shadilar. |

Izoh: Menejment bugungi kunda juda ko'p murakkab masalalarni hal qilishda muhim vosita bo'lib qolmoqda va kelajakda ham bu ahamiyatini yo'qotmaydi. Tashkilotlar menejmentning samarali usullaridan foydalanish orqali o'z muvaffaqiyatlarini ta'minlashlari mumkin.

Mamlakatimiz "falaj qilib davolash" usulidan voz kechdi. Bu yerda bozor munosabatlariga o'tish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Davlat mulkini xususiy mulk bilan bir vaqtning o'zida kooperatsiya, tadbirkorlik, chet ellik firmalar, banklar bilan hamkorlikka asoslangan holda turli xo'jalik yuritish usullarini qo'llash yo'li bilan amalga oshirish kerak. Menejment oldiga qo'yilgan ko'pchilik vazifalar muvaffaqiyatli hal etilmoqda. Hozirda iqtisodiy tashkilotlar vazifalari o'zgartirildi, boshqaruvning bozor munosabatlariga o'tishi amalga oshirilmoqda, boshqaruvning ixtisoslashuv chuqurlashuvi va kooperatsiya bo'yicha aloqalar barqaror bo'lishini ta'minlovchi yangi tashkiliy tizimlari vujudga kelmoqda. Islohatlar iqtisodiyotni boshqarishning barcha bo'g'inlarini – asosiy bo'g'in (korxona)dan to boshqaruvning oliy bo'g'inlarigacha qamrab olgan. Korxonalar to'g'risidagi qonun korxonalar erkinligi miqyosini kengaytirdi, ularning ish natijalari bo'yicha iste'molchilar oldidagi majburiyatlarini amalga oshirdi. Xulosa: Ayrim tadqiqotlar menejment kishilardan nafli samaralar olish san'ati, deb hisoblaydilar. Mukammal menejmentning xos belgilari: faoliyatga, izlanishga tarafdorlik; oddiy tuzilma va kamsonli xodimlar; iste'molchiga yaqinlik; unumdorlikni ta'minlashda insonning hal qiluvchi o'rni; tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi mustaqil idora qilish huquqi; asosiy faoliyat turiga birlamchi e'tibor; hammadan ko'ra yaxshiroq tanish bo'lgan sohaga kirishish; erkinlik va kuchli nazoratni birgalikda qo'llash.

Menejmentning vazifasi avvaliga xohishni imkoniyat darajasiga keltirib, so'ng esa uni xaqiqatga aylantirishdan iboratdir. Mamlakatimiz "falaj qilib davolash" usulidan voz kechdi. Bu yerda bozor munosabatlariga o'tish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Davlat mulkini xususiy mulk bilan bir vaqtning o'zida kooperatsiya, tadbirkorlik, chet ellik firmalar, banklar bilan hamkorlikka asoslangan holda turli xo'jalik yuritish usullarini qo'llash yo'li bilan amalga oshirish kerak. Menejment oldiga qo'yilgan ko'pchilik vazifalar muvaffaqiyatli hal etilmoqda. Hozirda iqtisodiy tashkilotlar vazifalari o'zgartirildi, boshqaruvning bozor munosabatlariga o'tishi amalga oshirilmoqda, boshqaruvning ixtisoslashuv chuqurlashuvi va kooperatsiya bo'yicha aloqalar barqaror bo'lishini ta'minlovchi yangi tashkiliy tizimlari vujudga kelmoqda. Islohatlar iqtisodiyotni boshqarishning barcha bo'g'inlarini – asosiy bo'g'in (korxona)dan to boshqaruvning oliy bo'g'inlarigacha qamrab olgan. Korxonalar to'g'risidagi qonun korxonalar erkinligi miqyosini kengaytirdi, ularning ish natijalari bo'yicha iste'molchilar oldidagi majburiyatlarini amalga oshirdi.

Xulosa

Har bir biznes mukammalikka harakat qiladi bunda esa korxonaning amaliy bosharuvi muhim ro'l egalaydi agar menejer o'z saloheatini to'laqonli namoyon eta olsa bu korxonaning ishlab chiqarish hajmini 2-3 barvar oshiraoladi. Mukammal menejmentning xos belgilari: faoliyatga, izlanishgatarafdorlik; oddiy tuzilma va kamsonli xodimlar; iste'molchiga yaqinlik; unumdorlikni ta'minlashda insonning hal qiluvchi o'rni; tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi mustaqil idora qilish huquqi; asosiy faoliyat turiga birlamchi e'tibor; hammadan ko'rayaxshiroq tanish bo'lgan sohaga kirishish; erkinlik va kuchli nazoratni birgalikda qo'llash.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. Akramovich N.A. The priority of using innovative technologies in the agricultural education system // Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 185–191.

2. Хакимов О.М., Курбанов З.Х., Мухаммедов Ф. Реализация возможнос тей получения легких наполнителей на основе меньше пластиковых почв в нашей республике // Science and Education. – 2021. – Т., 2. – №. 5. – С. 176–181.

3. Мухтаров Б.А., Ортиков Ё.Ю. Культурное и экономическое развитие туризма в Узбекистане // Молодой ученый. – 2016. – №. 14. – С. 375–378.

4. Rashidov U., Rashidov A. Assessment of Costs for the Quality of Logistics Activities // International journal of business diplomacy and economy. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 39–43.

5. Ҳосилмуродов И., Султоналиева Г. Тафаккур услубининг фалсафий-методологик таҳлили // Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 549–551.

6. Nodira T. Innovative management in the development of the higher education system / /Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 346–351.